



ICHKI MULOQOTNING AHAMIYATI VA SHAXS BO'LIB SHAKILLANISHIDAGI O'RNI

Pardayeva Maftuna

Termiz davlat universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti amaliy psixologiya
yo'nalishi 4 9kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7554026>

ARTICLE INFO

Received: 11th January 2023

Accepted: 19th January 2023

Online: 20th January 2023

KEY WORDS

*Ichki nutq, tashqi nutq,
muloqot, shaxsiy muloqot,
identifikatsiya*

ABSTRACT

Ushba maqolada inson ichki olamani boshqarishda ichki muloqotning naqadar muhimligini, umr kechirishda doim shu jihatlar maydonga chiqishini hamda mulohaza, muahhada qilishda qanchalik zarurligi keltirib o'tilgan.

Barchamizga ma'lumki, nutq ikki turga ajratiladi:

1. Ichki nutq
2. Tashqi nutq

Doimo bu ikki nutq bir birini to'ldirib turadi, ya'niki, ichki nutqsiz inson shaxs sifatida shakillana olmaydi, tashqi nutq ham huddi shunday jarayon sanaladi. Tashqi nutq inson maqsadlarini, kechinmalarini ifodalashga ko'maklashsa, ichki nutq esa, inson fikrlashiga, idrok etishiga vat boshqa mu him jarayonlarga ko'maklashadi. Muloqotning o'ziga ham alohida to'xtalib o'tish, ichki nutqni yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Muloqotning - ikki va undan ortiq shaxslarning o'zaro bilish yoki o'zaro effektiv-baholash orqali axbarot almashish jarayonidir. Yanada to'liqroq qilib aytganda, Muloqot - kishilar o'rtasidagi ma'lumotlarni almashish, o'zaro hamkorlikda axbarot yetkazishiga muhtojligini bartaraf etish, ta'sirlashuvning yagona yo'lini amalga oshirish, muloqotdoshini idrok etish hamda tushunish kabi aloqalarni tashkil va rivojlantirishning murakkam hodisasidir. Muloqotning maqsadiga ko'ra, muloqot ma'lum bir ehtiyojlarni ham qondirib boradi. Ularni biz biologik hamda ijtimoiy turlarga ajratamiz.

Biologik - bu organizmni chiniqtirish, mustahkamlashni ta'minlaydi. U hayotddagi asosiy ehriyoj manbalaridan biri sanaladi.

Ijrimoiy - jamiyatda, shaxslar o'rtasida muloqotni kengaytirish, uning ta'sir kuchuni mustahkamlashdir. Muloqot albatta o'z o'zidan amalga oshib qolmaydi, uni amalga oshiruvchi vositalar albatta mavjud. Ulardan eng birinchisi (tashqi muloqot uchun) tildir. Albatta, ichki muloqot tashqisidan vositalar jihatidan anchayin farq qiladi, nega deganda unda muloqot qiluvchi kishi o'zi sanaladi. Bu bilan yuqoridagi muloqotga berilgan ta'rifga nisbatan zid tushuncha payda bo'lishi mumkin, ammo unda inson tashqi nutqda ham kerak bo'ladigan unsur - tafakkur jarayonidan foydalaniladi. Inson zoti hech kimga ayta olmaydigan gap - so'zlarini, xislarini o'zicha tafakkur etib faqatgina o'ziga ayta oladi. Yana shuni qo'shimcha

qilib aytiah joizki, biz kim bilandir muloqot qilayotganimizda oldiniga ichki nutqdan foydalanamiz, keyin uni suhbatdoshimizga bayon etamiz. Ichki nutqni biz yana *shaxsiy muloqot* deb atasa ham bo'ladi. Bu jarayonda inson xarakterining psixologik jihatlarini keng ochib beradi, ichki munosabatlarni bildirishga ko'maklashiladi. Inson zoti shunday yaratilganki, aynan bir haqiqatlarga bo'ysunmaydi, masalan inson qay vaziyatda turganiga qarab doimo ham ichki fikr yuritavermaydi, bu vaziyatning muhimlik darajasiga ham bog'liq jarayondir. Muloqotning eng muhim jarayonlaridan yana biri -identifikatsiyadir. Bu jarayonda inson ko'rgan-bilganlari, tasavvurlari, shaxsiy hislatlari, jismoniy jihatlarini hamda fikrlash usullarini ongli, ongsiz ravishda bishqalari bilan taqqoslab ko'radi. Ichki muloqotni biz yana ichki so'zlashuv deb atasak ham bo'ladi. Bu inson o'z o'zini idora etish, boshqarish uchun ichki suhbat (diologik) shakl hisoblanadi.

Ichki nutqni eng ko'p tadqiq etgan olimlardan biri Lev Vigotskiydir. U bu atamani til sotib olish hamda tafakkur jarayonini bayon etish uchun ishlatgan. Vigotskiyning nazariyasiga ko'ra " Avvalambor, nutq ijtimoiy muhit sifatida boshlangan va ichki so'zlashuv, ya'niy so'zlashtirilgan fikr sifatida ichki holga keltirilgan". Aynan mana shu suhbat (diologik nutq) tafakkurni, tilni faoliyatga keltiradi va bu jarayonlarda ichki muloqotning o'zi ham paydo bo'lib, bir jarayondan ikkinchi jarayonaga ko'chib bizning fikellarimizni shakllantirib, tashqi nutq orqali ifodalanishga tayyor holatga keltirib beradi. Tashqi nutq insonning doim ham asl maqsadini, fikrini bayon etavermaydi qachonki shaxsning o'zi buni isatamaguncha, ammo ichki nutq doimo insinning asl maqsadlarini, rejalarini, uning kimligini ko'rsatib turadi. Barchamizga ma'lumki, inson uyqu vaqtida deyarli barcha narsadan tormozlanadi, albatta bu miyaning faoliyati bilan bog'liq jarayondir. Shuningdek, ichki va tashqi nutqlarning har ikkalasi ham bundan mustasno emas. Ammo, inson uyqu va tush ko'rish (to'lliq o'rganilmae,ezgan va anniq asosli javob topilmagan) vaqtida ichki nutqdan foydalanmay turib tashqi nutqdan foydalana oladi. Bu jarayon Alaxsirash hamda rush ko'rish vaqtida ro'y beradi. Bilamizgi nutq sezgi, idrok, tafakkur mahsuli hamdir, shunday ekan uyqu vaqtida ularning ayrim funksiyalari tormozlanadi, ayrimlari esa o'z faoliyatini davom ettiraveradi.

Xulosa va natijalar

Biz doimo o'z shaxsiyatimizni ichki nutq orqali bayon etamiz, ba'zan o'zimiz xohlamasakda, bizga yoqmasada ichki nutq biz haqimizdagi asl haqiqatlarni aytib turadi. Aslida nutqni boyitish manbayi - yozuv va mutoala hisoblanadi. Bu qarashlar 1987 yil Rivers Vigotskiyning ichki nutqqa bergan ta'riflarini va o'rganishlarini kashfiyot deb topishi bilan o'z isbotini topadi. Yana.shuni qo'shimcha qilib aytish mumkini, so'zlashuvni bevosita kamaytirish va ko'rinishini kechiktirish, chegaralab qo'yish, nutqni amalga ochirish uchun kuchli hayajon hamda talablarni oshirish natijasida ichki nutqni rivojlantiruvchi yozma nutq ham, tashqi nutq ham bir qancha zarar topishiga olib keladi. inson bir kun davomida tashqi nutqga nisbatan ko'proq ichki nutqdan foydalanadi.

References:

1. E.G'.G'oziyev. "Umumiy Psixologiya"
2. E.G'.G'oziyev. "Til va muloqot"
3. Arxiv.uz
4. Vikipediya